

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XORAZM VILOYATI  
HOKIMLIGINING MOLIYA  
BOSH BOSHQARMASI**



**MAIN DEPARTMENT OF  
FINANCE OF THE KHOKIMIYAT  
OF KHOREZM REGION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

*220100. Urganch sh. G‘.G‘ulom 1-tor ko‘chasi, 6-uy. telefon:362 223-29-67, faks:223-15-78,el.manzil: horezm-  
moliya@urg.mf.uz, xvmoliya@exat.uz*

**22.12.2021-yil**

**01/32/1328**

**Davlat xizmatlari agentligi Xorazm  
viloyat boshqarmasiga**

Xorazm viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasi, viloyat Davlat xizmatlari agentligi Xorazm viloyat boshqarmasining 2021 yil 10 dekabrda yangi xizmat avtomashinasi xarid qilish uchun ruxsat so'rab yozgan 1-7-8/1-627/4-sonli xatini ko'rib chiqib, quyidagilarni ma'lum qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 apreldagi "Davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida xizmat avtotransport vositalaridan foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 258-sonli qarorning 1-ilovasida Davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida xizmat avtotransport vositalarini biriktirish me'yorlari belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, xatda ko'rsatilgan viloyat Davlat xizmatlari agentligiga yangi xizmat avtomashinasini xarid qilish masalasi yuqoridagi qaror talablari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligini hamda e'tirozimiz yo'qligini bildiramiz.

**Bosh boshqarma boshlig'i**



**M.Iskandarov**

*Bajardi.S.Rajapov*  
*Tel:223-05-78*